

Viloyatimiz delegatsiyasi

Afg'onistoniga jo'nab ketdi



Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston xalqi nomidan birodar afg'on xalqiga navbatdagi insonparvarlik yordamini yetkazish maqsadida Afg'onistonning Balx viloyatiga jo'nab ketdi.

Jami 8 ta yuk mashinasiga ortilgan insonparvarlik yordami tarkibidan 48 tonna un, 48 tonna bug'doy, 15 ming litr o'simlik yog'i, 10 ming dona konservalangan go'sht, 24 tonna shakar va 22 tonna makaron mahsulotlari hamda 100 ming dona tez tayyorlanadigan qadoqlangan lag'mon paketlari o'rinn olgan.

Shu munosabat bilan bugun Hayratonda ikki mamlakat rasmiylari ishtirokida insonparvarlik yordamini topshirish marosimi bo'lib o'tadi.

Tashrifning keyingi tafsilotlari haqida axborot berib boramiz.